

**MAKTABGACHA TA'LIMDA ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONINI
TASHKIL ETISH VA MUVOFIQLASHTIRISH**

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani

21-sون DMTT direktori

Kodirova Gulmira Abdumuxtarovna

Annotatsiya. Maqolada ta'lism sifatini boshqatish, ta'lism tizimini sifatli tashkil qilish, zamonaviy sifatli ta'lism tizimini yaratish, ta'lism samaradorligini oshirish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация. Статья содержит информацию об управлении качеством образования, качественной организацией системы образования, создании современной системы качества образования, повышении эффективности образования.

Abstract. The article contains information on managing the quality of education, quality organization of the education system, creating a modern quality education system, and increasing the effectiveness of education.

Kalit so'zlar: ta'lism sifati menejmenti, ta'lism muassasasi, ta'lism sifati, ta'lism samaradorligi, ta'lism jarayonlarini tashkil qilish, ta'lism jarayonlaribi boshqarish, vazifalar, tamoyillar.

Ключевые слова: управление качеством образования, образовательное учреждение, качество образования, эффективность образования, организацией образовательного процесса, управление образовательным процессом, задачи, принципы.

Key words: educational quality management, educational institution, educational quality, educational efficiency, organization of educational processes, management of educational processes, tasks, principles.

Zamonaviy maktabgacha ta'lism tizimini yaratish va muvofiqlashtirish - bu murakkab, ammo juda muhim vazifa. Bolalarni yangi asr talablariga moslashuvchan, kreativ, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega shaxslar sifatida tarbiyalash uchun an'anaviy yondashuvlarni yangi, innovatsion g'oyalar bilan uyg'unlashtirish zarur. Buning uchun jamiyatning barcha a'zolari - pedagoglar, ota-onalar, davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lism tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha keng miqyosdagi ishlarning amalga oshirilishi natijasida bugungi kunda mamlakatimiz maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ilmiy va pedagogik tarkib tubdan o'zgardi, zamonaviy o'quv-dasturiy asosga, moddiy-texnik bazaga ega bo'lgan ta'lism maskanlari sifatida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Insonni har tomonlama barkamol

qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo‘lgan. Chunki insonning ma’rifatli va ma’naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligidagi amalga oshiriladi. Bola tug‘ilgan kundan boshlab, uni mакtabga borgunigacha bo‘lgan davrda har tomonlama yetuk barkamol qilib tarbiyalash qonuniyatlarini o‘rganish maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etishning mavzuyidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini boshqarish belgilangan va mo’ljallangan ehtiyojlar zonasida prognoz qilingan rejalahtirilgan natijaga yo‘naltirilgan sinergetik jarayondir. Bunday boshqaruvning strukturaviy va funktsional komponentlari sifatni loyihalashtirish, sifatni shakllantirish tizimini amalga oshirish va sifatni monitoring qilish, ikkita asosiy qiymatga ega: baholash va rahbarning harakatlarini tuzatishning keyingi yo‘nalishini belgilash.

Ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- pedagoglarning zamonaviy yondashuvlarga tayyorligi;
- rahbar xodimlarning ta’lim jarayonini ilmiy-metodik asosda muvofiqlashtirishi;
- ta’lim muhitining bolalar uchun qulay va rivojlantiruvchi bo‘lishi;
- ota-onalar bilan samarali hamkorlik.

Shunday ekan, maktabgacha ta’limda sifatli, zamonaviy va uyg‘un ta’lim jarayonini shakllantirish nafaqat ta’lim muassasasi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi.

Maqasad: Bolalarga maktabgacha yoshidan boshlab zamonaviy ta’lim berish, ularni psixik, aqliy va ijtimoiy va jismoniy jihatdan faol rivojlanishiga – xozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hal qilinishi kerak bo‘lgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunday o‘quv mashg‘ulotlari bolalarda katta qiziqish uyg‘otib, o‘yin davomida ortiqcha zo‘riqishlarsiz mantiqiy hamda ijodiy fikrlash rivojlanadi, ijtimoiy faoliyat va axloq me’yorlariga rioya qilish ko‘nikmalari tarbiyalanadi, tabiiy va ijtimoiy muhit to‘g‘risidagi tasavvurlari tartibga solinadi va tushunchalarni to‘g‘ri shakllanishi ta’milanadi. Ta’limning turli bosqichlarida davlat ta’lim standarti ta’lim faoliyati natijalari standarti sifatida qaraladi – ma’lum bir tarixiy davrda ma’lum bir jamiyat uchun zarur bo‘lgan ta’limning mos yozuvlar darajasi; ta’lim standarti, ta’lim to‘g‘risidagi tegishli hujjalarni olish uchun shaxs tomonidan erishish kerak bo‘lgan daraja. Maktabgacha ta’limda davlat ta’lim standarti ta’lim jarayonini amalga oshirish uchun shartsharoitlarning standartidir. Maktabgacha ta’limning vaqtinchalik standartiga muvofiq, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maqsadi va natiasi ta’lim jarayonini amalga oshirish uchun sharoit yaratishdir. Ta’lim sifatini boshqarish (ta’lim sifati menejmenti) ta’limni boshqarishning umumiyligi tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda

ta’lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lgan va amalda o’z samaradorligini ko’rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O’z o’rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiyl boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta’lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o’rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o’zi, bajarish yo’llari, alohida usul va xarakatlarning batafsil tartibi, ta’lim sifatini ta’minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy tamoyillari

- **Individual yondashuv** — har bir bolaning yoshi, qiziqishi va rivojlanish darajasini inobatga olish.
- **Interaktivlik** — ta’limda o’zaro muloqot, muhokama va faol ishtirokga asoslangan metodlardan foydalanish.
- **Integratsiya** — fanlararo bog’liqlikni ta’minlash orqali kompleks fikrlashni shakllantirish.
- **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish** — vizual va audio vositalar orqali ta’lim sifatini oshirish.

Sifatning umumiyl boshqaruvini joriy etish uchun rahbar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- sifat menejmentini joriy etish, raqobat sharoitida ta’lim muassasasining maqsadi, umumiyl mafkurasi, rivojlanish tamoyillarini ishlab chiqish to‘g’risida strategik qarorni qabul qilishi;
- tashkilot maqsadlari tarkibiga sifatni ta’minlashni kiritish, uni ham ma’naviy va ham moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlash;
- tashkilot oliy boshqaruvi tarkibidan sifat uchun mas’ul vakilni tayinlash;
- jarayonlarni boshqarishning statistik usullari va sifat menejmenti sohalari bo‘yicha xodimlarni (shu jumladan, yuqori pog’ona rahbarlar tarkibidan) tayyorlash;
- xodimlar bilan qayta aloqani tashkil qilish (ichki iste’molchilarining fikrlari va talablarini inobatga olish);
- ichki audit va tashkilotdagi kamchiliklar tahlilini muntazam o’tkazib turish.

Muvofiqlashtirishda rahbarning roli va vazifalari

- Rahbar nafaqat ma’mur, balki oliy malakali pedagog bo’lib, o’qituvchilarning ish sifatini monitoring qiladi, ularga metodik yordam ko’rsatadi va tashkiliy tavsiyalar beradi.
- Mahalliy ta’lim idoralari, kutubxonalar, muzeylar, sog’liqni saqlash markazlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni yo’lga qo‘yadi.;
- Ta’lim sifatini monitoring qilish va tahlil asosida yangilash;

- Zamonaviy ta'lif uchun zarur bo'lgan interfaol doskalar, planshetlar, kompyuterlar va dasturiy ta'minotni ta'minlaydi.;
- Ota-onalarni faol hamkorlar sifatida ko'radi. Ularni bolaning ta'lif jarayoniga jalb qilish, ular bilan muntazam aloqa o'rnatish, ularning fikr-mulohazalarini inobatga olish uchun strategiyalar ishlab chiqadi (masalan, "Ota-onsa kuni", ochiq darslar, portfolioolar va boshqalar).
- Bolalarning izlanishlarini qo'llab-quvvatlaydigan, rag'batlantiruvchi, xavfsiz va qulay muhitni shakllantirish uchun resurslar (materiallar, jihozlar, mebel) izlaydi va ulardan samarali foydalanishni tashkil etadi.

Ta'lif oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivasiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdag'i multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldar ta'lif texnologiyasi hisoblanadi. Interfaollikning ta'minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedianing muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta'lif oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi.

Xulosa: Zamonaviy ta'lif jarayonini maktabgacha ta'lif tashkilotlarida samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish, pedagoglarning doimiy malaka oshirishi, metodik yondashuvlarni yangilab borishi hamda texnologiyalardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lif tashkilotining rahbari - bu faqatgina ma'mur emas, balki:

- **Lider** (jamoa va g'oyalarga etaklovchi),
- **Strateg** (kelajakni ko'ruvchi va rejalashtiruvchi),
- **Murabbiy** (o'qituvchilarning o'sishiga yordam beruvchi),
- **Diplomat** (ota-onalar va hamjamiyat bilan munosabatlarni yo'lga qo'yuvchi),
- **Innovator** (doimiy yaxshilanish va o'zgarishlar tarafdoi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.X. Dexqonova <https://cyberleninka.ru/journal/n/talqin-va-tadqiqotlar-ilmiy-uslubiy-jurnali-2022>.
2. S.R. Mansurova Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423
3. Qurbonov SH, Seytxalilov E. Ta'lif sifatini boshqarish. /T.: "Turon-Iqbol", 2006. 592 b.
4. Total Quality Management – vseobychnee upravlenie kachestvom. – Jurnal "Direktor-Ivanovo", № 1-2 (120-121), yanvar-fevral 2011 g.

5. R.Ishmuhammedov, M.Yo'ldoshev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (Ta'lim tizimi hodimlari metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma) – T: 2013.
6. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya,

